

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 65 (1126), 2024-yil 2-aprel, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news




yuz



O‘ZBEKISTON PREZIDENTI XXR DELEGATSIYASINI QABUL QILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 1-aprel kuni joriy yilning yanvar oyida o‘tgan oliy darajadagi uchrashuvdagi kelishuvlar doirasida mamlakatimizga kelgan Xitoy Xalq Respublikasi Davlat kengashi a‘zosi, jamoat xavfsizligi vaziri Van Syaouxun boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Yuqori martabali mehmon O‘zbekiston yetakchisiga ko‘rsatilayotgan mehmondoshlik uchun chuqur minnatdorlik bildirib, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpingning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Uchrashuvda xavfsizlikka nisbatan zamonaviy xatar va tahdidlarga qarshi kurashishda amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish va birgalikdagi sa‘y-harakatlarni muvofiqlashtirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari O‘zbekiston bilan Xitoy o‘rtasidagi do‘stlik va barcha sharoitlarda strategik sheriklik munosabatlari bugun yuksak darajaga ko‘tarilganini alohida mamnuniyat bilan ta‘kidladi. Huquqni muhofaza qilish sohasida samarali idoralararo hamkorlik uchun mavjud salohiyat va imkoniyatlar qayd etildi.

Ustuvor yo‘nalishlar sifatida jamoat xavfsizligining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha tajriba almashish va qo‘shma tadbirlar o‘tkazish, zamonaviy axborot texnologiyalari va innovatsion usullarni joriy qilish, kiberjinoatchilikka qarshi kurashish, malakali mutaxassislarni tayyorlash va boshqalar ko‘rsatib o‘tiladi.

Mintaqaviy hamkorlik masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

O‘za

BUGUNNING GAPI

DEHQON TAFAKKURIDAGI EVRILISHLAR

meva-sabzavot va
oziq-ovqat mahsulotlarini
eksport qilish imkoniyatini
yanada oshiradi

Bu yil ko‘klam seryog‘in keldi. Diyorimizda ketma-ket kuzatilayotgan obirahmat yomg‘irlari yil yaxshi kelishidan darak bermoqda. Qadimiy udumlarimizga binoan, mirishkor dehqon fermerlar, bog‘bonu sohibkorlar yangi mehnat mavsumini ezgu niyat va yuksak maqsadlar bilan boshlamoqda.

Aslida, zaminimizda yilning to‘rt faslida tabiat noz-ne‘matlari yetishtiriladi. Hatto qishning o‘rtasida ham bozorlarimizda sarxil meva-sabzavot, ko‘katu ziravorlar uzilmaydi. Ular ekologik tozaligi, shifobaxshligi, quyoshning zarrin nurlariga to‘yingani bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham tabiiy darmondorlarga boy mevalarimiz jahon bozorida hamisha xaridorgir.

Bu borada agrar sohada, xususan, uzumchilik, bog‘dorchilik, meva-sabzavotchilik tarmog‘ida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida ota-bobolardan meros hayotiy tajribalar, qolaversa, ilm-fan yutuqlari, innovatsion g‘oya va texnologiyalardan samarali foydalanib kelinayapti. Natijada yetishtirilayotgan hosilning bir qismi ishlab chiqarish korxonalariga yetkazib berilayotgan bo‘lsa, bir qismi xorijga chiqarilmoqda.

Davomi 4-beta

Taraqqiyot odimlari

1909-yil yozida olmoniyalik o‘qituvchi Richard Shirman shogirdlarini bir necha kunga tog‘ yonbag‘riga sayohatga olib chiqadi. Quyuq daraxtzor, moviy ko‘l, yastanib yotgan kengliklar, turfa o‘simliklar va tabiat ajoyibotlari yosh sayyohlar ko‘ngliga olam-olam zavq bag‘ishlaydi. Ammo kechqurun momaqaldiroq gumburlab, yomg‘ir quya boshlaydi.

YOSHLAR TURIZMI

Bu yo‘nalish qanday rivojlanyapti?



Yalanglikda dam olayotgan yoshlar yomg‘irdan qochib, yaqin o‘rtadagi qishloq maktabiga kiradi. Yomg‘ir tuni bilan tinmaydi. Shirman shogirdlari uxlab olishi uchun qulay sharoit yaratishga harakat qiladi. U o‘shanda o‘ylab topgan to‘rpardalar bilan bir-biridan ajratilgan kichik yotoqxonalarda g‘oyasi keyinchalik butun dunyoga mashhur

bo‘lib ketadi. Shu tariqa Germaniyada yoshlar sayyohlik uyushmasi yuzaga keladi.

Yoshlar turizmi sohasidagi bu muvaffaqiyatli tajriba butun dunyoda yoshlar turistik bazalari yuzaga kelishiga turki bo‘ldi. Bugun aksariyat mamlakatlarda yoshlar turizmi alohida yo‘nalish sifatida rivoj topmoqda.

Davomi 5-beta

XOTIN-QIZLARNING YO‘QLAR KISHISI BOR

yoxud mahallada hech kim o‘z holiga tashlab qo‘yilmayapti

Mahallalarda xotin-qizlar faoli lavozimi joriy etilganiga hali ko‘p bo‘lmadi. Shu qisqa vaqt ichida soha vakillari amalga oshirayotgan xayrli ishlar, ehtiyojmandlarning ijtimoiy himoyasi, xotin-qizlar huquqini himoya qilish, ayollar o‘rtasida tadbirkorlik muhitini kuchaytirish borasida erishilayotgan natijalar haqida tez-tez eshitib turamiz.

Albatta, bu yurtimizda inson hayotiga daxldor islohotlarni mahalla darajasida tashkil etishga qaratilayotgan alohida e‘tiborning bir ko‘rinishi. Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi Minor mahallasi xotin-qizlar faoli Muhabbat Mirzayeva faoliyati bilan tanishib, bunga yana bir karra ishonch hosil qildik.

Davomi 2-beta

O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI | 2030

FUQAROLARDA TADBIRKORLIK RUHINI UYG‘OTISH

kambag‘allikni qisqartirishda muhim omil

Vaqt yugurik. Kechagina bola edim, bugun farzandlarim katta hayot bo‘lag‘asida. Shunday keza otalik mas‘uliyati yoshlarga hayotda o‘z o‘rnini topishi uchun yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, maslahat berishga undaydi. Va beixtiyor bu mas‘uliyat yuki xayollaringni olis-olislarga olib ketadi. Axir hozirgi yoshlarga yaxshi o‘qish kerak yoki biror kasb sirlarini puxta egalla, degan quruq nasihat bilan ta‘sir o‘tkazib bo‘lmaydi. Ularga to‘g‘ri yo‘nalishni o‘z hayotingda taqdim etilgan yoki boy berilgan imkoniyatlar haqida hayotiy voqealar misolida tushuntirish samaraliroq.

Xullas, bizning balog‘at yoshimiz istiqloqling ilk davrlariga to‘g‘ri kelgan. Esimda, haftaning bir kuni kasb-hunar o‘rganish mashg‘ulotlari bo‘lard. Yigitlar, asosan, duradgorlik va mexanizatorlik, qizlar esa tikuvchilikni o‘rganardi. Endi o‘ylab qararasam, o‘sha paytlar bundan boshqa kasblarni o‘rgatishga yetarli sharoit ham, talab ham bo‘lmagan ekan. Bugun-chi?

Bugungi zamon shiddati barchamizni birdek shoshirib qo‘ymoqda. Bir lahza tin olsang, rivojlanishdan ortda qolasan. Shu bois, doim izlanish va o‘rganishda bo‘lish kerak. Bu — taraqqiyotning

oltin qoidasi. U esa o‘z qoidalariga amal qildirishni xush ko‘radi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilab berilgan maqsad va vazifalar ham zamonga hamnafasligi bilan ahamiyatlidir.

Jumladan, dasturning 27-maqsadida kambag‘al oilalar muammolarini hal etish orqali mamlakatda kambag‘allik darajasini kamaytirish borasida aniq vazifalar, mas‘ullar va eng muhimi, moliyaviy manbalar belgilandi.

Keyingi yillarda aholini kambag‘allikdan chiqarish borasida olib borilayotgan ishlar yaxshi samara bermoqda. Bunda fuqarolarda tadbirkorlik ruhini uyg‘otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha ijtimoiy siyosatni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Ta‘kidlash joiz, mamlakatimizda kambag‘allikka qarshi faol kurashish 2020-yildan boshlandi. 2022-yildan esa mazkur jarayon umummilliy tus oldi, bir butun mahallabay tizimi tashkil qilindi.

Davomi 3-beta

“O‘RIK GULLAGANDA...”

6

Ayol va jamiyat

XOTIN-QIZLARNING YO'QLAR KISHISI BOR

yoxud mahallada hech kim o'z holiga tashlab qo'yilmayapti

Tajribali xotin-qizlar faoli kelgusi yil 70 yoshni qarshilaydi. Ushbu tabarruk yoshda ham el-yurt ravnaqi, oilalar totuvligi yo'lida astoydil mehnat qilayotgan Muhabbat opaning hali rejalari ko'p. Vatanimizning yuksalish odimlarini, mahallalarimiz yanada chiroy ochib, gullab-yashnashini, xalqimizning hech kimdan kam bo'lmagan turmushini ko'rish va bu xayrli ishlarga munosib hissa qo'shish maqsadi unga kuch-quvvat, jo'shqinlik baxsh etadi.



mingdan ko'proq aholi yashaydigan hududda "mahalla yetiligi" hamkorligida bunday

kontrakt pulini to'lashda ko'mak berildi. Nogironligi bor va bemor ayollarga sog'lig'ini yaxshilash uchun tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatildi.

Onalar, bolalar, keksalar salomatligini muhofaza qilishda hududdagi oilaviy poliklinika bilan hamkorlikda ish olib boriladi. Ikki mingga yaqin xonadon, to'rt

xayrli ishlar bugun yanada keng ko'lamda davom ettirilmoqda.

Bir qarashda mo'jazzgina ko'ringan mahallada hamma ishlar shu taxlit silliq kechayotgandek, barcha oilalarda hayot bir maromda davom etayotgandek tuyuladi. Ammo shunday muammolar ham uchraydiki, uni hal etish uchun mahalla faollari bilan fidoyilik, bilim, salohiyat talab etiladi. Yaqinda Muhabbat opa ham shunday holatga duch keldi: mahallada yashaydigan bir ayol ikki farzandi bilan "ko'chada qoldi". U yashayotgan uy qaynonasining nomida bo'lgani uchun nabiralar taqdirini ham o'ylamay, uyni sotib yuboradi, ayonling turmush o'rtog'i esa vafot etgan. Mahalla faollari maslahatlashib, ayolga va farzandlariga moddiy yordam berdi. Ona-bolalar vaqtincha qarindoshlari uyida yashab turdi. Bu masalalarga huquqiy va amaliy yechim topish uchun Muhabbat opa ko'p idoralarga qatnadi. Nihoyat, ularga ijtimoiy yulardan ikki xonalni uy ajratildi.

U xotin-qizlarning huquqiy-ijtimoiy himoyasi bilan bog'liq bunday ishlarni nafaqat mahallada, balki butun respublika miqyosida ham amalga oshirib keladi. Jumladan, xotin-qizlarga huquqiy yordam ko'rsatish bo'yicha ishonch telefonlari tarmog'iga uning raqami ham ulangan. Oxirgi uch yilda ushbu ishonch telefoni tarmog'i orqali besh mingga yaqin xotin-qizga huquqiy ko'mak ko'rsatganidan mamnun.

Albatta, murojaatlarga yechim topish oson emas. Ba'zan murojaatchining muammosi uning ham dilini qattiq ranjitadi. Yaqinda ana shunday bir holat bo'ldi: bir ayol turmush o'rtog'i uch qizi bilan tashlab xoriyga ketganini, bunga oilada ketma-ket qizlar tug'ilgani sabab bo'lganini aytib, ko'mak so'raydi. Bu ayolga zudlik bilan nafaqat huquqiy, balki amaliy yordam ko'rsatish zarurligini inobatga olib, jarayonga tegishli davlat organlari va jamoatchilik e'tiborini qaratishtirish maqsadida murojaatni ijtimoiy tarmoqda e'lon qiladi. Ayolga va uning farzandlariga o'zi ham bepul huquqiy yordam ko'rsatadi. Hozir ushbu oilaning hayoti iziga tushib ketgan.

Er-xotin o'rtasidagi kelishmovchilik tufayli onadan bolalarini tortib olish qonunchiligimizga ham, ma'naviyatimizga ham to'g'ri kelmaydi. Ammo hayotda oz bo'lsa-da, shunday holatlar uchraydiki, muhabbat opaning aytilishicha, bunga ko'pincha otaning o'z farzandlariga aliment to'lashdan qochishi sabab bo'lar ekan. Tajribali huquqshunos bunday hollarda ayollar huquqiy himoyachisi sifatida sudlarda ko'p ishtirok etgan va doim yutib chiqqan.

Yana bir muammo ayollarning turmush o'rtog'i xonadonida doimiy ro'yxatga olinmasligi bilan bog'liq. Bunday holatda oilada voyaga yetgan farzandlar ham pasport olishda qiyinchilikka uchraydi. Muammoning yechimi sifatida qonunchilikka tegishli o'zgartirish masalasida bir qator takliflar ilgari surilgan.

Jamiyatimizda bunday muammolarga chek qo'yishning muhim usullaridan biri aholi, jumladan, xotin-qizlarning huquqiy bilimini oshirish, oilada va jamiyatda faolligini yanada kuchaytirishdir, — deydi Muhabbat Mirzayeva. — Mahalla yoshlari o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlarini yuritishda shu masalalarga doimiy e'tibor qaratamiz. Hududimizdagi maktabda pedagoglar, turli soha mutaxassislari bilan hamkorlikda tashkil etiladigan tadbirlarda ham shu mavzuda qizg'in bahs-munozara bo'ladi. Mahallada faoliyat yuritadigan "Ota-onalar universiteti", "Buvijonlar maktabi", "Oqila ayollar" harakati kabi jamoat tuzilmalari faollari bu ishlarga jalb etiladi.

Muhabbat Mirzayevaning mahalla instituti faoliyati rivojiga qo'shayotgan ana shunday hissasi va xotin-qizlar huquqiy himoyasi yo'lidagi faolligi davlatimiz tomonidan munosib baholamiz, Prezidentimizning joriy yil 20-martdagi "Mahalla tizimi xodimlari kuni munosabati bilan bir guruh yurtdoshlarimizni mukofotlash to'g'risida"gi farmonga muvofiq, II darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeni bilan taqdirlandi.

Tajribali xotin-qizlar faoli kelgusi yil 70 yoshni qarshilaydi. Ushbu tabarruk yoshda ham el-yurt ravnaqi, oilalar totuvligi yo'lida astoydil mehnat qilayotgan Muhabbat opaning hali rejalari ko'p. Vatanimizning yuksalish odimlarini, mahallalarimiz yanada chiroy ochib, gullab-yashnashini, xalqimizning hech kimdan kam bo'lmagan turmushini ko'rish va bu xayrli ishlarga munosib hissa qo'shish maqsadi unga kuch-quvvat, jo'shqinlik baxsh etadi. Mahalladan qaytar ekanimiz, shunday vatanparvar, fidoyi insonlar bilan zamondosh bo'lganimizdan qalbimiz faxrga to'ladi va ular oramizda ko'pligiga ishonchimiz yanada ortadi.

Bahor XIDIROVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Muhabbat opaning asli kasbi huquqshunos, qariyb qirq yil shu sohada mehnat qilib, nafaqaga chiqqan bo'lsa-da, uni yo'qaydiganlar, huquqiy yordam so'rab keladiganlarning qadami uzilmaydi. Ayniqsa, mahalladoshlariga turli masalalarda doim beminnat huquqiy ko'mak beradi. Uning bu tajribasidan mahalla faoliyatida ham samarali foydalanish maqsadida xotin-qizlar faoli lavozimiga tavsiya etildi. Muhabbat opa bu vazifani ham sidqidildan bajarib kelmoqda. Xususan, o'tgan yili "Ayollar daftari" va boshqa loyihalar orqali 164 nafar xotin-qizga yordam ko'rsatildi. Ularning yigirmaga yaqini kasb-hunarga o'qitilib, ishga joylashtirildi. Ehtiyojmand oilalarning talaba farzandlariga

Yana bir muammo ayollarning turmush o'rtog'i xonadonida doimiy ro'yxatga olinmasligi bilan bog'liq. Bunday holatda oilada voyaga yetgan farzandlar ham pasport olishda qiyinchilikka uchraydi. Muammoning yechimi sifatida qonunchilikka tegishli o'zgartirish masalasida bir qator takliflar ilgari surilgan.

Nigoh

BUDJET TAQSIMOTIGA YANGI VA ADOLATLI YONDASHUV

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Bozor – qadim Sharqning o'ziga xos, betakror qiyofasi. Tumonat odam. Bir-biriga ulanib ketgan rastalar. Yoyilgan gazlamalar. Dimoqqa xush yoquvchi turfa ziravorlaru taomlar, issiq non hidi. Zamonaviy "jarchi"larning ovozi yaqinroqdan eshitiladi: – Bitta ovozga bir litr yog', to'rtta ovozga bir kilo tandirkabob, o'n to'rtta ovozga bitta qo'zichog'!

Yuqoridagi holat, anglaganingizdek, bozordagi o'rta asrlar emas, bugungi kunning ayni manzarasi. 2021-yilda tajriba tariqasida boshlangan "Open budget" — "Tashabbusli budget" loyihasi o'tgan 3 yil davomida aholi tomonidan iliq kutib olindi. Mazkur jarayon openbudget.uz portali orqali yiliga 2 marta o'tkazilishi belgilangan. Aholi o'z hududidagi hal etilishi lozim bo'lgan muammoli masalalarni portalga joylagan holda bitta ovoz berish orqali ushbu tashabbusda g'olib bo'lish uchun harakat qilmoqda.

"Tashabbusli budget" loyihasining 2022-yildagi birinchi bosqichida qariyb 6,7 million kishi qatnashgan. 40,2 mingga yaqin loyihalarga ovoz berilib, undan 2215 ta loyiha eng ko'p ovoz olgan holda moliyalashtirishga tavsiya etilgan.

Loyihaning 2023-yilgi birinchi mavsumida esa 16 millionta ovoz berilgan, bu birinchi yilga qaraganda o'n barobar ko'p, degani.

O'tgan yilgi mavsumda 3 mingga ovozdan ko'p natija to'plagan 1666 ta loyiha g'olib deb topilgan hamda loyihalar ijrosiga 1,6 trillion so'm ajratilishi belgilangan. 1,5 mingga ovozdan ko'p ovoz olib, g'olib bo'lmagan loyihalar joriy yilgi "Open budget" dasturiga qayta kiritildi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan "Tashabbusli budget"ning 2024-yildagi ilk mavsumiga 1-fevraldan start berildi. Dastlab 1-20-fevral kunlari joylardan loyihalar kiritildi. 21-fevraldan 11-martga qadar esa ushbu loyihalar saralandi. Ovoz berish jarayoni 16-martdan boshlandi va 4-aprelda to'xtatildi.

2024-yilda qurilish-ta'mirlash ishlari uchun budjetdan 20 trillion 24 milliard so'm ajratiladi.

Vazirlik ma'lumotiga ko'ra, ushbu mavsum uchun tuman va shahar budjetlari hisobidan 3 trillion so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi. "Open budget" portaliga joylanayotgan ijtimoiy loyihalar orasida har yili maktabgacha

va maktab ta'limi muassasalarining ta'miri yetakchilik qiladi. Keyingi o'rinlarda yo'l, ichimlik suv, elektr energiyasi, gazlashtirish va boshqa yo'nalishlar joy oladi.

Shu kunlarda ko'pchilikning e'tiborini "Open budget"ga qo'yilgan loyihalarga ovoz

Ta'kidlash kerakki, "Tashabbusli budget" jamiyatda jamoatchilik nazorati shakllanishiga, hududlar aholisining birlashishiga xizmat qilmoqda. Uzoq yillardan buyon hal bo'lmay kelayotgan ijtimoiy muammolarga fuqarolar yordamida yechim topilmoqda.

"Tashabbusli budget" jarayoni haqida ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari tomonidan fikr bildirilarkan, ba'zi hollarda ayrim davlat budjeti mablag'larini eng muhim ijtimoiy muammolarni hal etish uchun emas, balki mahalliy hokimiyat organlarining ayrim mansabdor shaxslari qarori asosida o'zlari tanlagan loyihalarga yo'naltirilayotganiga e'tirozlar uchraydi. Bu kabi holatlarga davlat va jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytirish maqsadida "Open budget" portali ish olib bormoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarda, shuningdek, joylardagi dolzarb muammolarni aniqlashda

Masalaning muhim va og'riqli tomoni, ijtimoiy tarmoqlar orqali joylarda turli soha egalari mahalliy rahbariyat tomonidan ushbu loyihada ovoz yig'ish uchun majburiy topshiriq berilayotgani, topshiriqni bajarishga e'tibor qaratmayotgan korxon vakillariga chora ko'rish bilan tahdid qilinyotgani to'g'risida ham xabarlar tarqalmoqda.

Bu kabi holatlar aniqlansa, tegishligi bo'yicha vazirliklar hamda huquq-tartibot organlari tomonidan jiddiy o'rganilib, aybdorlarga nisbatan choralar belgilanishiga sabab bo'ladi. Bunday hollarda xodimlarni majburiy mehnatga jalb etganlik uchun jinoyi javobgarlikka bo'lgan jazo nazarda tutilmoqda.

O'zim ham uzoq vaqt deputat bo'lib faoliyat yuritganman. Hududlardagi ijtimoiy sohaga oid qanday muammolar borligi hamda ularning qaysi biri viloyat, tuman va mahallaga to'g'ri kelishi borasida haqiqiy holatni bilish mumkin bundan. Loyiha deputatlarining ham yaqin ko'makchisi bo'ldi, — deydi O'zbekiston Qahramoni Rahmon Muhammadiyev.

1200 nafardan ortiq o'quvchi tahsil oladigan Termiz tumanidagi 5-umumiy o'rta ta'lim maktabi 1987-yilda qurilgan bo'lib, sharoiti zamonaviy talabga javob bermaydigan holatga kelib qolgan edi. G'olib bo'lganimizdan so'ng ajratilgan 1 milliard 200 million so'm mablag' evaziga ta'lim dargohi zamonaviy ko'rinish oldi. Sport zali va istish tizimi joriy ta'mirlandi. "Open budget"ning samarasi mana shunda deb bilaman, — deydi Termiz tumanidagi "Sabzipoya" MFY raisi Nazar Jo'rayev.

Faoliyatimiz yuzasidan joylarda bo'lganimizda aholi mavsumning boshlanishini kutayotganini aytadi. Yutganlar birlashganini aytadi, yutqizganlar aholi birkamaganidan nolydi. Bu loyiha budjet mablag'larining samarali sarflanishiga, ochiqligiga, jamoatchilik nazoratiga, mablag'lar talon-taroj qilinmasligiga, faqat va faqat xalq manfaatini uchun xizmat qilishiga zamin yaratishi bilan e'tiborga molik, — deydi jurnalist Dilnoza Mamaraimova.

Xulosa o'rinda ta'kidlash mumkin, "Tashabbusli budget"ning davlat va xalq yakdilligidagi tashabbuslari aholining yaqin kelajakda emas, bugun yaxshi yashashini ta'minlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Bu borada siz nima deysiz, aziz mustahfiy?



Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan "Tashabbusli budget"ning 2024-yildagi ilk mavsumiga 1-fevraldan start berildi. Dastlab 1-20-fevral kunlari joylardan loyihalar kiritildi. 21-fevraldan 11-martga qadar esa ushbu loyihalar saralandi. Ovoz berish jarayoni 16-martdan boshlandi va 4-aprelda to'xtatildi.

yig'ish jarayoni tortayotgan bo'lsa, ajab emas. Har bir o'rin uchun raqobat yuqoriligi bois, aholi o'z loyihasi tanlovda yutib chiqishi uchun turli yo'llarni izlayotgani ham bor gap. Mahallalar mas'ullari, ko'chaboshilar, mehnat faxriylari, o'qituvchilar, tarbiyachilar, bifokorlar, otanalarning so'rovlaridan bilish mumkin, qamrov kasb va lavozim tanlamagan.

bu kabi aholining ovoragarchiligiga ne hojat, axir hududlardan saylangan deputatlar bor-ku, degan haqli savol ham o'rta ta'mirlandi. Bu jarayonning yaxshi tomoni o'sha "mudragan" ayrim mahalliy deputatlarni faollikka undaydi, davlat tomonidan berilayotgan imkoniyatlardan yanada keng foydalanishga o'rgatadi.

BIZ VA DUNYO

O'zbekiston elchixonasi ko'magida Qo'qon shahridagi "Avvali" holva ishlab chiqarish korxonasi rahbari Abdulatif Xolmatov va O'monning "East coast Jewells LLC" kompaniyasi rahbari Yosir al-Nabhaniy o'rtasida onlayn muzokaralar tashkil etildi.



QO'QONNING MASHHUR HOLVALARI O'MON BOZORLARIDA

Uchrashuvda O'zbekistonda tayyorlangan holvalarning O'mon bozoriga eksporti istiqbollari muhokama qilindi. E'tiborlisi, O'mon tomoni o'zbek holvalarini sotib olishga katta qiziqish bildirdi.

Muzokaralar natijasi o'laroq, Qo'qon holvalari tayyorlangan shirinliklarning birinchi partiyasi O'monga yetkazib berildi. 30-mart kuni salkam 150 kilogramm holva Maskatga keltirildi va shahardagi shirinliklar sotishga ixtisoslashgan savdo tarmoqlariga tarqatildi.

"Ta'mi va qadoqlanish did bilan bezatilgan nuqtayi nazaridan ushbu mahsulotlar yuqori sifat darajasiga ega. Biz o'zbek holvasi tez orada O'monda xaridorgir mahsulotlar qatoridan munosib o'rin egallashiga ishonamiz", dedi Yosir al-Nabhaniy.

"Dunyo" AA
Maskat shahri



O'ZBEKISTON STRATEGIYASI | 2030

FUQAROLARDA TADBIRKORLIK RUHINI UYG'OTISH

kambag'allikni qisqartirishda muhim omil

Kambag'allikni sezilarli qisqartirishda ayni yo'nalishga doir qator me'yoriy hujjatlar qabul qilib, amaliyotga tatbiq etilayotgani muhim ahamiyatga ega bo'lyapti. Xususan, joriy yilgi davlat dasturida oilalarni kambag'allikdan chiqarish bo'yicha ishlab chiqilgan "Individual dasturlar" doirasida kambag'allik darajasini 2024-yil yakuni bilan 10 foizga kamaytirish belgilandi.



Lutfulla SUVONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Bundan tashqari, ushbu yo'nalishdagi sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish uchun Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Har bir aholi punkti va mahallada kambag'allikka qarshi kurashish, tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlash masalalari bo'yicha tuman hokimining yordamchisi lavozimi joriy etildi. Shuningdek, ularning faoliyatini tashkil etish bo'yicha Respublika komissiyasi, tegishli agentlik va uning joylardagi bo'limlari faoliyat boshladi. Ushbu sohalar uchun mas'ul bo'lgan Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tuzildi.

Mamlakatimizning barcha hududlari 5 toifaga qisqarib, 11 foizni tashkil etdi, — deydi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bo'lim boshlig'i Sherzod Murodov. — Lekin bu barcha hududlarda ham o'z ijobiy aksini topdi, degani emas. Agar misollarga e'tibor qarataydigan bo'lsak, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarida kambag'allik darajasi sezilarli ravishda kamaymagan.

Mazkur viloyatlarda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha Xalq deputatlari viloyat kengashi sessiyasi qarori qabul qilindi. Buning uchun maxsus ishchi guruh viloyatning har bir hududidagi aholini atroflicha o'rgandi. Bunda har bir mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan kelib chiqib, "driver" sohalarga e'tibor qaratildi va bu samara berdi. Soddararoq aytganda, "Bir mahalla — bir mahsulot"

sharoit yaratish orqali ishga joylashtirishga ko'maklashish vazifasi qo'yilgan. Shuningdek, bandlik organlarida ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va natijadorligini oshirish orqali 423 ming aholini

tamoyili bu borada ustuvorlik kasb etmoqda. Eng muhimi, aholi bandligi ta'minlanib, yaxshigina daromad manbaiga ega bo'lyapti.

Yana bir e'tiborli jihat. Ayni paytda respublikamiz bo'yicha yoshlarga dehqon xo'jaligi uchun 60 ming gektar yer ajratilishi rejalashtirildi. Bu ham, o'z navbatida, kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlashga xizmat qiladi. Asosiysi, bu yerlar yoshlarga shunchaki berib qo'yilayotgani yo'q. Buning uchun ular "Agrobank" tizimida tashkil etilgan "Suvchilar maktabi"da o'qitilib, qishloq xo'jaligi sohasida yetarli bilimga ega bo'lgachgina ularga yer ishonib topshirilyapti.

Kambag'allikni sezilarli qisqartirishda ayni yo'nalishga doir qator me'yoriy hujjatlar qabul qilib, amaliyotga tatbiq etilayotgani muhim ahamiyatga ega bo'lyapti. Xususan, joriy yilgi davlat dasturida oilalarni kambag'allikdan chiqarish bo'yicha ishlab chiqilgan "Individual dasturlar" doirasida kambag'allik darajasini 2024-yil yakuni bilan 10 foizga kamaytirish belgilandi.

Bu vazifani amalga oshirish uchun ayni paytda har bir viloyatning imkoniyatiga ko'ra, dastur ishlab chiqildi. Bunda kambag'allikni qisqartirish uchun nafaqat fuqarolar bandligini ta'minlash, subsidiya berish yoki imtiyozli kredit ajratish, balki kambag'allik yuqori bo'lgan tumanlarda yo'l-transport, elektr, aloqa va turizm infratuzilmasini yaxshilash, kichik va o'rta shaharlarni rivojlantirish, mahallalarni sanoatlashtirishga e'tibor qaratildi. Jumladan, dasturda suv ta'minoti, yo'l, elektr energiya tarmog'i kabi yo'nalishlarni yaxshilash belgilab olindi.

Ma'lumki, chekka hududlarda ish o'rinlari kam. Hozirgi kunda olib borilayotgan eng katta ishlardan biri o'rta hududlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni yo'lga qo'yish. Bu bilan, birinchidan, oziq-ovqat yetishtirish ko'paydi, ikkinchidan, fuqarolarning bandligi ta'minlanadi va qolaversa, daromad oshadi.

Dasturda kambag'al oilalar a'zolarining 180 ming nafarini doimiy ishga joylashtirish, 320 ming nafariga imtiyozli kredit va subsidiya ajratish, 100 ming nafarini kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish kabi vazifalar ham bor.

Endi savol tug'iladi: bu oilalar qaysi mezonlar asosida ajratib olinadi, qaysi holatlarda imtiyozli kredit va subsidiya beriladi yoki kasb-hunarga, tadbirkorlikka o'qitishga jalb etiladi?

— Dasturda belgilangan vazifani bajarish uchun bizga hokim yordamchilari platformasi juda qo'l keladi, — deydi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bosh mutaxassisi Saidjon Rajabov. — Ayni paytda mazkur platformada 1 milliondan ortiq kambag'al oila mavjud. Bu platformada har bir oila a'zosi individual yondashilgan. Hatto o'sha kambag'al oilaning talabidan kelib chiqib, qanday ishlar amalga oshirilishiga ko'ra vazifalar belgilangan.

Kambag'allikni qisqartirishning asosiy omillaridan biri aholi bandligini ta'minlashdir. Dasturning 28-maqсадida aholini mehnat faoliyatiga jalb qilish uchun qulay shart-



mehnat faoliyatiga jalb qilish belgilangan. Bu raqam har bir viloyat kesimida taqsimot qilingan hamda oylar kesimida bo'lingan. Buning uchun hududlarda yoki mahallalarda joylashgan korxonalar-tashkilotlarning bo'sh ish joylariga yuboriladi. Bu yagona mehnat milliy tizimi orqali kuzatib boriladi.

Qayd etish kerak, joriy yilning dastlabki ikki oyida 60 mingga yaqin fuqaro ishga joylashtirildi.

Yana bir jihatga e'tibor qarash kerak. 423 ming fuqaroning ichida ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam vakillari ham bor, albatta. Ularni tuman, shahar, viloyat hokimliklarining ana shunday fuqarolar uchun xakimxonalari ish o'rinlariga joylashtirish belgilangan.

Bu boradagi ishlarni amalga oshirish uchun "Yangi.mehnat.uz" axborot tizimi faoliyat ko'rsatmoqda. Tizim orqali aholi bandligi dasturi ijrosi bilan bog'liq jarayonni onlayn kuzatib borish imkoniyati yaratildi.



Shu bilan birga, dastur ijrosi bo'yicha mas'ullarga platformani kuzatib borish hamda bevosita investitsiya loyihalarini ishga tushirish, xizmat ko'rsatish va tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga qishloq xo'jaligi, qurilish sohalari bo'yicha hududga yaratilgan yangi ish o'rinlarini kiritib borishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Darhaqiqat, oilani kambag'allikdan chiqarish uchun, birinchi navbatda, juda ko'p moliyaviy faoliyat turlari, imkoniyatlar yaratildi. Bunga imtiyozli kreditlar, subsidiya, fuqarolarni tomorqachilikda band qilish borasida yaratilgan sharoitlarni aytish mumkin.

Kambag'allikni qisqartirishda muhim ahamiyat kasb etayotgan omillardan yana biri davlatimiz rahbarining 2023-yil 23-fevraldagi "Kasanachilikni yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan tadbirkorlik subyektlariga har bir kasanachining dastlabki uch oy davomidagi kasanachilik faoliyatini uchun bir oylik o'rta-

daromadi miqdorida bir martalik subsidiya ajratilishi bo'ldi.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 21-dekabrda "Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida ham kasanachilik va hunarmandchilik yo'nalishida yangi ish boshlayotgan xotin-qizlar uchun tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish, rivojlantirish, takomillashtirish hamda ularga uslubiy yordam berish maqsadida ta'lim tashkilotlarida tajribali kasanachi va hunarmandlarni jalb etgan holda kasb-hunarga o'qitish kurslari tashkil qilish belgilangan.

Xususan, xotin-qizlarni kasanachilik va hunarmandchilik yo'nalishlarida kasb-hunarga o'qitish bilan bog'liq xarajatlarni Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi mablag'lari hisobidan tasdiqlangan xarajatlarni smetasi doirasida moliyalashtiriladi. Bunda ta'lim tashkilotlarida

fuqarolarga asbob-uskuna va xomashyo xarid qilish bo'yicha xarajatlarni qoplash uchun bazaviy hisoblash miqdorining 30 barobarigacha miqdorda bir martalik subsidiya ajratiladi. Bu ham chekka hududlardagi fuqarolarni kambag'allikdan chiqarishda juda muhim omil bo'ldi.

— Biz yana ssuda berish amaliyotini yo'lga qo'ydik, — deydi Saidjon Rajabov. — Jamg'arma mablag'lari hisobidan har bir jalb qilingan kasanachi uchun 1 million so'mgacha, biroq jami 150 million so'mgacha 2 yilgacha muddatga foizsiz ssuda berilmoqda. Shuningdek, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturida har bir jalb qilingan kasanachi uchun 2 million so'mgacha, biroq jami 300 million so'mgacha yillik 14 foiz stavkada, 6 oygacha bo'lgan imtiyozli davr bilan 3 yilgacha muddatga revolyuter kreditlar ajratilmoqda. Mazkur kredit va ssudalarni tadbirkorlik subyektlari talabiga binoan kasanachilarning bank kartalariga o'tkazib berilishi yo'lga qo'yildi.

Muhim masalalardan yana biri — ana shu bandligi ta'minlangan fuqarolarni tadbirkorlikka, o'zini o'zi band qilishga jalb qilgan bo'lsa, endilikda fuqaroni bevosita mahallaning o'zida ishga joylashtirish uchun yo'llanma berish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu ham, o'z navbatida, ortiqcha ovoragarchilik va vaqt sarflashning oldini oladi.

Muhim masalalardan yana biri — ana shu bandligi ta'minlangan fuqarolarni tadbirkorlikka, o'zini o'zi band qilishga jalb qilgan bo'lsa, endilikda fuqaroni bevosita mahallaning o'zida ishga joylashtirish uchun yo'llanma berish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu ham, o'z navbatida, ortiqcha ovoragarchilik va vaqt sarflashning oldini oladi.

Yana bir qulaylik. Hokim yordamchilariga onlayn platforma orqali shunday vakolat berildi, oldin ular fuqarolarni tadbirkorlikka, o'zini o'zi band qilishga jalb qilgan bo'lsa, endilikda fuqaroni bevosita mahallaning o'zida ishga joylashtirish uchun yo'llanma berish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu ham, o'z navbatida, ortiqcha ovoragarchilik va vaqt sarflashning oldini oladi.

Muhim masalalardan yana biri — ana shu bandligi ta'minlangan fuqarolarni tadbirkorlikka, o'zini o'zi band qilishga jalb qilgan bo'lsa, endilikda fuqaroni bevosita mahallaning o'zida ishga joylashtirish uchun yo'llanma berish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu ham, o'z navbatida, ortiqcha ovoragarchilik va vaqt sarflashning oldini oladi.

90 ming ishsiz yoshlarni kasb-hunar, xorijiy tillar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish rejalashtirilmoqda.

Eng asosiysi, mazkur vazifalarning moliyaviy manbalari davlat tomonidan aniq ko'rsatib berildi. Ayni paytda buni oyma-oy, tuman va shaharlar kesimida shakllantirib chiqdik. Bunda asosiy e'tibor ish beruvchining buyurtmasiga asosan tashkil etiladi. Va bunda ish beruvchi ma'lum bir vaqt yoki kasbni buyurtma qiladigan bo'lsa, biz ishsiz fuqarolarni o'qitib, bandligini ta'minlashga erishamiz.

Kasb-hunarga o'qitishda xususiy sektor va "usta-shogird" maktablari ulushini 20 foizga yetkazish chorasini ko'rish ham belgilangan. Bunda e'tibor kasbga o'qitish jarayoniga nodavlat ta'lim tashkilotlari ishtirokini kengaytirishga qaratilmoqda. Ahamiyatli jihati, bu esa o'z-o'zidan raqobati keltirib chiqaradi va sifati yaxshilashga xizmat qiladi.

Ma'lumki, keyingi yillarda yurtimizga elektromobillar shiddat bilan kirib kelmoqda. Lekin ayni paytda ularga texnik xizmat ko'rsatadigan shoxobchalar juda kam. Ana shu maqsadda 25 nafar muhandis-usta Xitoyning "BYD" kompaniyasiga borib, ish o'rganishi uchun kelishuvga erishildi. Ular ish o'rganib qaytgandan keyin fuqarolarimizga ana shu kasb sirlarni o'rgatadi.

Bugun yurtimizda ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Qator hashamatli ko'p qavatli binolar foydalanishga topshirilyapti. Bu esa, o'z navbatida, liftlar xizmat ko'rsatuvchi ustalar talabini oshirmoqda. Shunday ekan, 2024-yilda bugun talab oshib borayotgan kasblar — avtotyuning, internet tarmog'ida reklama beruvchi SMM marketing kabi yangi yo'nalishlarni o'rganish rejalashtirganimiz.

Tan olish kerak, uzoq yillar olib hududlarda aholini bozor talabi yuqori kasblarga o'qitish ishlari yo'lga qo'yilmadi. Mana shu ham kambag'allikning oshishiga bir turki bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Nega deganda, ma'lum bir kasb-hunarga ega odam hech qachon kambag'al bo'lmaydi. Bugun barcha sohalar bo'yicha ish topiladi.

Ayni paytda bu borada ham ma'lum bir yo'nalishlar bo'yicha ishlar tashkil etilmoqda. Birinchi navbatda, hududning nimaga ixtisoslashgani, bu yerda qaysi kasbga talab yuqorilgandagina kelib chiqib, kasb-hunarga yo'naltiriladi. Ana shundan keyin ish o'rinlariga buyurtma asosida ishchi kuchi tayyorlab berilmoqda.

Yana bir qulaylik. Endi fuqarolar tuman markazlariga borib, bandlik bo'limlaridan bo'sh ish o'rinlari haqida ma'lumot, ishga joylashish uchun yo'llanma olishi shart emas. Buning uchun uyida o'tirib, internetdan Labor-Migration, Mehnat.uz saytlari orqali onlayn murojaat qilishi mumkin.



sharoit yaratish orqali ishga joylashtirishga ko'maklashish vazifasi qo'yilgan. Shuningdek, bandlik organlarida ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va natijadorligini oshirish orqali 423 ming aholini

sharoit yaratish orqali ishga joylashtirishga ko'maklashish vazifasi qo'yilgan. Shuningdek, bandlik organlarida ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va natijadorligini oshirish orqali 423 ming aholini



BUGUNNING GAPI



Keyingi uch yilda Prezidentimiz tashabbusi bilan 94,2 ming gektar maydonda bog'lar yaratildi. Farg'ona, Navoiy, Sirdaryo, Jizzax, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarida anozor plantatsiyalari tashkil etildi. Shu bilan birga, dunyo tajribasi asosida bodom, yong'och, pista, o'rik, gilos, xurmo, anjir bog'larini kengaytirish ishlariga alohida e'tibor qaratilyapti.

Odiljon IBROHIMOV,
Farg'ona politexnika instituti
professori, qishloq xo'jalik fanlari
doktori

Boshlanishi 1-betda

Keyingi yillarda mamlakatimizda meva-sabzavotchilik, polizchilik va uzumchilik serdaromad sohalardan biriga aylandi. Qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda yurtimizda 342,5 ming gektar mevali bog'lar bor. Uning 250,7 ming gektari fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi korxonalariga ta'sirida bo'lsa, qolgan aholi xonadonlari hissasiga to'g'ri keladi.

Bog'dorchilikda zamonaviy ilmiy fan yutuqlari, innovatsion g'oya va texnologiyalardan samarali foydalanish ko'lami kengaydi. Bu borada Andijon, Farg'ona, Jizzax viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasida amalga oshirilayotgan tajribalarni misol sifatida keltirish mumkin. Mahsulot yetishtirishda ilmiy va amaliyotni uyg'unlashtirishga asoslangan fermer xo'jaliklari va korxonalar endilikda gektaridan 24-25 tonna sifatli hosil olish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu avvalgi yillarga taqqoslaganda 3-4 hissa ko'p. Sohaga klaster tizimi joriy etilib, qator imtiyoz va imkoniyatlar berilgan meva-sabzavotchilik yo'nalishida yangi imkoniyatlar eshigini ochdi.

Masalan, Andijon viloyatida bog'dorchilik yo'nalishidagi klasterlar faoliyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, meva-sabzavot yetishtirish va eksport qilishda soha "drayver"i sifatida namoyon bo'layotganini kuzatish mumkin. Viloyatda 2020-2023-yillarda 50 ming tonna mahsulotni qayta ishlash va 30 ming tonna

DEHQON TAFAKKURIDAGI EVRILISHLAR



meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilish imkoniyatini yanada oshiradi

saqlash quvvatlarini yaratildi. Xalqaro sifat sertifikatini qo'lga kiritilib, eksport geografiasiyasi yildan yilga kengaymoqda.

O'tgan yili viloyatda 155 ming tonna qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilgan bo'lsa, uning 45 ming tonnasini ho'l va qayta ishlangan holda eksportga, 53 ming tonnasini qayta ishlashga, 57 ming tonnasini ichki iste'mol bozoriga yo'naltirildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasidagi ikkita meva-sabzavotchilik klasterining "Global G.A.P." va "ORGANIK" xalqaro standartlariga ega bo'lishi ham e'tiborga molik voqea bo'ldi. Bu mahsulotlarni an'anaviy bozorlardan tashqari Yevropa Ittifoqi davlatlariga eksport

qilishda qo'l kelyapti. Ayni paytda "To'rtko'l kunjuti" MCHJ meva-sabzavotchilik klasterida 280 gektar yerda eksport meva bog'lari plantatsiyasi tashkil etish uchun 1,2 million dollarlik loyiha amalga oshirilmoqda.

Keyingi uch yilda Prezidentimiz tashabbusi bilan 94,2 ming gektar maydonda bog'lar yaratildi. Farg'ona, Navoiy, Sirdaryo, Jizzax, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarida anozor plantatsiyalari tashkil etildi. Shu bilan birga, dunyo tajribasi asosida bodom, yong'och, pista, o'rik, gilos, xurmo, anjir bog'larini kengaytirish ishlariga alohida e'tibor qaratilyapti.

Bundan tashqari, 1 million gektar g'alladan

bo'shaydigan maydon, 508 ming gektar aholi tomorqasi, shuningdek, odamlarga bo'lib berilgan 260 ming gektar yer ham turli meva-sabzavotlar yetishtirish uchun ajratilgan.

O'tgan yili yurtimizda 23 million tonna meva-sabzavot tayyorlangan, oziq-ovqat sanoatida 86 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan. Qishloq xo'jaligi 4,1 foiz o'sib, eksport qariyb 2 milliard dollari tashkil etgan. Mamlakatimiz Avstraliya, Yangi Zelandiya, Singapur, Kolumbiya, Indoneziya kabi 10 dan ortiq yangi bozorga chiqqan, mahalliy mahsulotlar eksport qilinadigan mamlakatlar soni 85 taga yetgan.

Joriy yilda esa eksport miqdorini 3,5 milliard dollarga yetkazish maqsad qilinayapti. Shundan 2,5 milliard meva-sabzavot va 1 milliard boshqa oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga to'g'ri keladi. Bunda meva eksportini 45 foizga, sabzavotni 50 foizga, poliz ekinlarini 36 foizga, uzumni 2,2 barabarga va dukkakli mahsulotlarni 32 foizga ko'paytirish choralarini ko'rilmoqda.

E'tiborlisi, eksport qilingan mahsulotlar tarkibida quritilgan meva va qayta ishlangan mahsulotlar ulushi ortib boryapti. Chunki zaminimizda yetishtirilgan mevalar quritilganda yanada yaxshiroq, uzoq saqlash mumkin bo'lgan mahsulotga aylandi. Negaki tayyor yoki yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlarining sarasini bozorga olib chiqish, qolganlarini turi, xilidan qat'i nazar, 1798 ta muzlatkich bilan jihozlangan va sig'imi 1 million 183 ming 173 tonna bo'lgan binolar hamda quvvati 427,4 ming tonnaga teng 1433 ta omborxonada saqlash va qayta ishlash imkoniyati yaratilgan.

80 foiz 5 ta davlat bozoriga to'g'ri kelgani, ya'ni o'tgan yili 52 davlatga 126 ming tonna uzum eksport qilingan bo'lsa, shundan 98 ming tonnasini (77,7 foiz) 12 davlatga kilosi 1 dollardan arzon narxda sotilgani qayd etildi. O'zbekistonning eng xaridorligi mahsulotlari bo'lgan gilos, shaftoli, xurmo, o'rik, olcha, olxo'ri, anjir, anor, bodom, loviya, mosh kabi mahsulotlarni eksport qilishda ham xuddi shunday holat kuzatilmog'ani. Shuning barobarida 16 ta tuman meva-sabzavot mahsulotlarini umuman eksport qilmagan. Yoki paxta ekimlarni 28 tumanda eksport ko'rsatkichlari qoniqsiz holda bo'lib, mahsulot yetishtirish, saqlash, saralash va sotishda eksportyor va fermerlar o'rtasida tizimli hamkorlik yo'lga qo'yilmagan.

Shunday ekan, bu kabi muammolar qanday hal etiladi? Yig'ilishda davlatimiz rahbari ularni bartaraf etishning aniq yo'llarini ko'rsatib berdi. Xususan, ko'plab eksportchi korxonalarini qiyayotgan masala bu — aylanma mablag'. Shu bois, joriy yilda Biznesni rivojlantirish bankidan ushbu maqsadlar uchun 1,5 trillion so'm resurs yo'naltirildi. Bu mablag'lar evaziga eksportchi korxonaga fermer va tayyorlov ombori bilan tuzgan shartnoma summasining 50 foizigacha imtiyozli kredit beriladi. Kreditlar 18 foiz stavkada 6 oy imtiyozli davr bilan 1,5 yil muddatga ajratiladi.

Ayni pishiqchilik davrida o'z vaqtida yig'ishtirib yoki joylashtirib oloymaslik oqibatida mevali daraxtlar tagiga to'kilib yotgan hosilni, qayta ishlash korxonalariga yetkazish paytida nobud bo'layotgan meva-sabzavotlarni ko'z oldingizga keltiring. Ozgina e'tiborsizlik oqibatida bu sifatli xomashyo o'z xususiyatini yo'qotib, chirib isrof bo'ladi.

Chunki meva-sabzavot tez buziladi, sifatini yo'qotadi. Shu bois, mahsulot turidan kelib chiqib, yo'qotish miqdori 10 foizgacha belgilanadi. Ho'l meva, sharbat, qandolat, murabbo, jem kabi bir xil haroratda yetkazish talab etiladigan mahsulotlar uchun sovitkichli yuk konteynerlari olib kelinadi.

Tabi'iy yo'qotish va sifat buzilishini kamaytirish uchun ekishdan boshlab, mahsulotni saqlash, qadoqlash, qayta ishlash va sotish zanjirini to'liq qamrab oladigan uch yillik dastur t a y o r l a n a d i.

Qishloq xo'jaligi eksporti bilan shug'ullanuvchi 2362 ta korxonaga ko'maklashish, ularning safini kengaytirish choralarini ko'riladi.

Aholi tomorqasi va ekin yerlarida sarxil meva-sabzavot yetishtiriladi. Ularni naqd pulga sotib olib, eksportga tayyorlab beradigan ta'minotchilar ko'p. Endi ular o'zini o'zi band qilgan shaxslar kabi faoliyat yuritadi va aylanmasidan qat'i nazar, barcha soliqlardan ozod bo'ladi.

Dolzarb mavzu

CHIQUINDINI HAR YERGA TASHLAMANG
JARIMA TO'LAYSIZ

O'tgan ish haftasi yakunida davlatimiz rahbari raisligida o'tkazilgan videoselektorda "Yashil makon" loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilinib, chiqindilar bilan ishlash tizimini takomillashtirish borasida aniq topshiriqlar berildi.

Endilikda hududlarda obodonlashtirish va tozalikni ta'minlash bo'yicha mutlaqo yangi tizim joriy qilinadi. Jumladan, har bir viloyatdagi 2 tadan, jami 26 ta tumanda tajriba tarzida obodonlashtirish boshqarmalari vazifalari xususiy shirkat asosida chiqindi korxonalariga o'tkaziladi. Chiqindi poligonlarini tartibga keltirish va chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha ham yangi tizim tashkil etilishi belgilandi.

Bu bejiz emas, albatta. Zero, ozodalik, orastalik bor joyda fayzu baraka bo'ladi. Shu bois, ushbu masala davlat rahbari darajasida bir necha bor muhokama qilinmoqda.

Yaponiyalik sportchi va muxlislarda bir yaxshi odat bor. O'yindan so'ng muxlislari o'zlarini o'rganib o'rindiqdalar atrofi, sportchilar esa kiyinish xonasini chiqindilardan tozalab ketadi. Bu jarayonga ko'p guvoh bo'lganmiz yoki turli ommaviy axborot vositalarida ushbu fazilatni namuna qilib yoritishganini o'qiganmiz. Ularda shunday madaniyat shakllangan.

Ammo biz ekologik madaniyat bo'yicha maqtan olmaymiz. Ko'cha-ko'ya, xonadonlar yoki ko'p qavatli uylar atrofida shunchaki tashlab ketilgan maishiy chiqindilarga tez-tez ko'zimiz tushadi. Kimdir chiqindilarni maxsus ajratilgan joylarga tashlansa, kimdir eringanidan uzogdan chiqindi konteynerini mo'ljalga olishga harakat qiladi. Yo'l-yo'lakay avtomobillardan ham ko'cha chetiga chiqindi otilishiga duch kelamiz.

Kundalik hayotimizda foydalanilayotgan mahsulotlardan hosil bo'lgan maishiy chiqindilarning so'nggi manzili haqida hech o'yab ko'rganmisiz? Chiqindi poligonlari o'rnatilgan tartibda jihozlanmagan yoki hududida sanitar tozalash ishlari o'ldi-jo'lda bo'lsa-chi?

Ma'lumotlarga ko'ra, yurtimizda yiliga o'rta 7 million tonnaga yaqin maishiy chiqindi hosil bo'ladi. Ularning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish, tabiatni muhofaza qilish esa eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Tan olib aytish kerak, chiqindilarni alohida yig'ish, saralash va qayta ishlash tizimi yurtimizda to'laqonli yo'lga qo'yilmagan. Vaholanki, bu atrof-muhitning ifloslanish darajasini kamaytirishda eng maqbul yechimdir. Prezidentimizning 2024-yil 4-yanvardagi "Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bu borada navbatdagi muhim qadam bo'ldi.

Farmonda mavjud poligonlarning holati ekologiya va sanitariya talablariga javob bermasligi, ular faoliyatida qayta ishlash, utilitatsiya qilish va kuydirib yuborish tizimlari yaratilmagan, shuningdek, boshqaruv tizimi to'g'ri yo'lga qo'yilmagan sababli ayrim poligonlar tartibsiz shakllangan alohida ko'rsatilgan. Bundan tashqari, chiqindi

xizmatlari uchun to'lov so'nggi 4-yil davomida qayta ko'rib chiqilmagan sanitar tozalash korxonalarining iqtisodiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan, oqibatda chiqindilarni to'plash, olib chiqib ketish, saralash va qayta ishlash ishlari to'laqonli va samarali ravishda amalga oshirilmagan. Tizimdagi shu kabi qator kamchiliklar chiqindi bilan bog'liq muammolar kelib chiqishiga sabab bo'lgan.

Navoiy viloyatida ham kuniga 600 tonna maishiy chiqindi hosil bo'ladi va bu yiliga qariyb 250 ming tonnani tashkil etadi. Hududlarda qog'oz, plastik, alyuminiy va boshqa turdagi chiqindilarni alohida yig'ish, ularni qayta ishlash tizimi talab darajasida emasligi sababli chiqindi poligonlarining viloyatdagi ekologik vaziyatga salbiy ta'siri tobora kuchaymoqda. Qolaversa, poligonlarning belgilangan tartibda jihozlanmagan, yig'ish, tashish, utilitatsiya qilish, sanitar tozalash kabi jarayonlar o'z vaqtida bajarilmasligi bu xavfning yanada oshishiga olib kelmoqda.

Ayni vaqtda viloyatda chiqindini qayta ishlaydigan 11 ta korxonaga faoliyat yuritadi. Ularning 7 tasi polimer mahsulotlari, 4 tasi qog'oz-karton chiqindilarni qayta ishlashga ixtisoslashgan. Ammo bu borada yana ko'p chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozimligini ekologiyaga salbiy ta'siri tobora oshib borayotgan chiqindi poligonlaridagi real holatlar ham ko'rsatib turibdi.

Viloyatdagi chiqindi poligonlaridan ikkilamchi xomashyoni realizatsiya qilishni tashkil etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Bu borada Birlashgan Arab Amirliklari mutaxassislari bilan hamkorlik qilinmoqda. Ular tomonidan maishiy chiqindilarni qayta ishlash



bo'yicha investitsiya kiritish takliflari berildi, — deydi viloyat ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Nurullo Boltayev.

Farmonga ko'ra, 1-iyunda maishiy chiqindilar tarkibidagi ikkilamchi xomashyoni realizatsiya qilish faqat birja orqali amalga oshiriladi. Endilikda chiqindilarni "qayta ishladigan", "qayta ishlanmaydigan" va "oziq-ovqat" toifalariga ajratgan holda yig'ish tashkil etiladi. Sohada xususiy shirkatni rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Viloyatning Qiziltepa tumanida faoliyat ko'rsatayotgan chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash korxonasida kuniga 30 tonnagacha chiqindini yig'ish va qayta ishlash imkoniyati mavjud. 24 sotix maydonda joylashgan korxonaga, asosan, polimer chiqindilarni qayta

ishlaydi. Yiliga esa 300 tonna yarim tayyor granula mahsulotini ishlab chiqarib, shartnoma asosida korxonalariga yetkazib beradi. Bu esa hududda chiqindilarning atrof-muhitga zararini kamaytirishda muhim omil bo'layotir.

Korxonada Xitoy texnologiyasi asosida toifalarga ajratilgan chiqindilar maxsus uskunada maydalanadi va yuvilib, quritiladi. Quritilgan xomashyo eritilib, yarim tayyor mahsulotga aylantiriladi. Korxonada 20 nafar ishchi-xodim ishlaydi. Mavsumga qarab, yollanma ishchilar ham daromad olish imkoniyatiga ega.

Kelgusida korxonaga faoliyatini kengaytirish bo'yicha loyihalarimiz bor. Yarim tayyor granula mahsulotidan 20 dan ortiq tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishda foydalanish mumkin. Qo'shimcha seltar ochish orqali bu mahsulotlarni o'zimizda tayyorlashni yo'lga

qo'yimoqchimiz. Yangi loyihalar amalga oshirilgach, yanada ko'proq ish o'rni yaratiladi, — deydi korxonaga rahbari Ramziddin Hayotov.

Albatta, chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha xorijiy tajribani o'zlashtirish yaxshi samara beradi. Bir qator mamlakatlarda allaqachon maishiy chiqindilarni qayta ishlash yo'lga qo'yilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, Germaniya, Belgiya, Yaponiya, Niderlandiya, Shvetsiya kabi davlatlarda 60-65 foiz maishiy chiqindi qayta ishlanadi, 20-25 foizidan energiya olinadi. Bizda esa hududlardagi poligonlarda maishiy chiqindilar shunchaki ko'mib yoki yoqib yuborilish holatlari kuzatilmog'ani.

Darvoqe, Prezidentimizning yuqoridagi farmonga ko'ra, endilikda maishiy chiqindilarni maxsus joylarga emas, balki belgilanmagan hududga tashlab ketish holatlari bo'yicha nazorat yanada kuchaytirildi. Belgilangan tartibda avtomobil yo'llarida yo'l harakati qoidalari buzilganini maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish dasturiy-texnik vositalarini o'rnatgan tadbirkorlik subyektlariga ekologik huquqbuzarliklarni qayd etish va davlat ekologik nazorat inspeksiyasiga xabar berish huquqi berildi. Qolaversa, aholiga o'z tashabbusi bilan chiqindixonalarga aylangan yoki tizimli ravishda chiqindilar noxushiyat ravishda tashlab ketilishi kuzatiladigan hududlarda o'z mablag'larini hisobidan foto va video qayd etish dasturiy-texnik vositalarini o'rnatish yuzasidan buyurtma berish imkoniyati ham yaratildi. Shuningdek, "Xavfsiz shahar" integratsiyalangan tizim doirasida kameralar ham ekologik huquqbuzarliklarni aniqlaydi.

Shunday ekan, fuqarolar ekologik madaniyatga qat'i riya etishi lozim. Aks holda, bu kabi huquqbuzarlik sodir etgan shaxs ham atrof-muhitga, ham cho'ntagiga zarar yetkazadi.

Muxtasar aytganda, yurtimizda chiqindilarni boshqarish tizimi tubdan takomillashtirishda. Bu esa ekologik barqarorlikni ta'minlash, fuqarolar salomatligini asrash, qolaversa, chiqindilardan ikkilamchi xomashyo olinishi natijasida iqtisodiy jihatdan o'sishga erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ekologik madaniyat bilan bu jarayonga hissa qo'shish har bir fuqaroning insoniylik burchidir.

G'olib ABDUSALOMOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

TARAQQIYOT ODIMLARI

YOSHILAR TURIZMI

Bu yo'nalish qanday rivojlanyapti?

Risolat MADIYEVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Sohaga davlat e'tibor qaratyapti

Osori atiqalarga boy diyorumiz sayyohlik salohiyati va imkoniyatlari borasida dunyoda munosib o'rni ega. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi qadimiy shaharlarimizni ko'rish, betakror me'moriy obidalar, tabarruk qadamjolarni ziyorat qilish, nodir tabiat go'zalliklaridan bahramand bo'lish, azaliy an'ana va qadriyatlarimiz bilan tanishish istagidagi sayyohlar soni yildan yilga ortmoqda. Ayni chog'da yurtimizda turizm sohasining jadal rivojlanishi ijroiy tendensiyalar kuzatilyapti. Turizm xizmatlari sifatini yaxshilash, sayohatchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, xizmat turlarini ko'paytirish, to'siqsiz turizm infratuzilmasini rag'batlantirish, xorijlik sayyohlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadalashtirish chora-tadbirlari, mehmon uylari, turizm qishloqlari barpo etilayotgani soha rivojida muhim ahamiyat kasb etayotir.

Davlatimiz rahbari 2023-yilning 16-oktabr kuni Samarqand shahrida Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh assambleyasining 25-sessiyasi ochilishi marosimida yoshlar uchun sayyohlikni rivojlantirish loyihalari hamda yangi g'oyalarni yaratishda muhim va foydali maydonga aylangan Jahon yoshlar turizmi sammitining navbatdastigini Toshkent shahrida o'tkazishni taklif etgani ham sohaga qaratilgan yuksak e'tibordan dalolatdir.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida O'zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish belgilangan. Jumladan, xorijiy sayyohlar sonini 10,5 million nafarga, turizm xizmatlari eksportini 2,5 milliard dollarga, shu jumladan, tibbiyot va ta'lim turizmi eksportini yiliga 200 million dollarga yetkazish vazifasi qo'yilgan. Shuningdek, ichki sayyohlar sonini 21 millionga, ziyorat turizmi bo'yicha keladiganlar sonini 1,5 millionga yetkazish, mehmonxona, transport, tur-operator, savdo va servis korxonalarini kooperatsiya asosida faoliyat yuritadigan 4 ta yirik turizm klasteri (majmuasi) ni, xususi investitsiyalarni jalb qilish hisobiga hududlarda 600 ta joylashtirish vositasi tashkil etish maqsad qilingan.

Vazifalar ijrosida yoshlarning ulushi qanday?

Ushbu ko'rsatkichga erishish maqsadida viloyatlar kesimida 5 million yoshning sayohatini tashkil etish rejalashtirilgan, — deydi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi yuritayotgan Turizm qo'mitasi boshqarmasi boshlig'i Jamshid G'oziyev. — Unga ko'ra, mamlakatimizdagi korxonalar va tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan xodimlar, xotin-qizlar va kam ta'minlangan oilalar farzandlari sayohatga chiqadi. Bundan tashqari, o'quvchi-talabalar va korxonalar xodimlarini Mo'ynoq tumaniga, "Manguberdi

vataniga sayohat qil" ichki turizm dasturi doirasida o'quvchi yoshlar, talabalar va pensionerlarni Xorazm viloyatiga, "Inklyuziv to'siqsiz turizm" va "Inklyuziv sayohat" dasturi doirasida nogironligi bo'lgan shaxslar, notinch oilalarning tarixiy joylarga sayohati ko'zda tutilmoqda. Shuningdek, yurtimizdagi mavjud ziyoratgoh va muqaddas qadamjollarga sayyohlar hamda nuroniylar sayohatlari tashkil etiladi.

Mart, avgust oylarida barcha hududlarda, dekabr oyida esa respublika darajasida ichki turizm yarmakalari o'tkaziladi.

Olamni kashf etib, do'stlar ortirib...

Turizm jahon iqtisodiyotida daromadli va jadal rivojlanib boruvchi sohalardan. Bu soha bozorining asosiy segmentlaridan biri yoshlardir. Xalqaro ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni yaxshilashda yoshlar turizmining alohida o'rni bor.

Yoshlar turizmi rivojida ommaviy tadbirlarning hissi katta. Sababi, yurtimizga kelayotgan xorijlik sayyoh, eng avvalo, milliy taomlarimizni tatib ko'rish, me'moriy va tarixiy obidalarimiz, milliy-madaniy urf-odatlarimiz bilan tanishishni istaydi. Shu yo'nalishlarda ham qator tadbirlar o'tkazilmoqda. "Boysun bahori", Buxorodagi zargarlik va zardo'zlik, Xorazmdagi lagzi kabi festivallar shular jumlasidan. Tadbir ishtirokchilarining asosiy qismini yoshlar tashkil qiladi.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 30-apreldagi "Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori yoshlar turizmi rivojini yangi bosqichga ko'tardi. Qarorda 2022-yildan iyl oyida "Yoshlar turizmi oyligi", 2023-yildan esa yanvar oyining birinchi va mart oyining uchinchi dekadasida "Yoshlar turizmi haftaligi"ni o'tkazib borish yo'lga qo'yilishi keltirilgan. "Yoshlar turizmi oyligi" doirasida esa "Yoshlar turizmi" qurultoyi tashkil etilishi belgilangan.

O'tgan yili avgustda Shahrisabzda o'tkazilgan "Yoshlar turizmi" qurultoyi 15 mingdan ortiq kishini qamrab oldi. Ularning 700 nafarini yoshlar tashkil etdi. Respublikamizning har bir hududidan iqtidorli, ijtimoiy himoyaga muhtoj, shu jumladan, nogironligi bo'lgan hamda "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yigit-qizlar



jalb qilingani navqiron avlod vakillarini umumiy maqsad yo'lida birlashtirdi. Do'stlik, olamni kashf etishdek tuyg'ularga yo'l ochdi.

Kitobxonlik kunlari, milliy va etnosport turlari bo'yicha sport musobaqalari hamda madaniy-ko'ngilochar tadbirlar, yuqori natijalarga erishgan hamda yoshlarga o'rnak ko'rsatadigan sportchilar va murabbiylar, san'at, madaniyat, ilm-fan, biznes sohalari namoyandalari ishtirokida mahorat darslari, tanqiliy teatr va kino ijodkorlari bilan muloqot o'g'il-qizlarni yorqin taassurotlarga oshno etdi.

— Yoshlarimiz bitta maqsad sari birlashgani, bitta jamoa bo'lib ishlagani, sayohat qilgani ulam qalbida vatanni sevish, yurtimizning har bir go'shasi bilan faxrlanish hissinii uyg'ordi, — deydi Jamshid G'oziyev. — Buni yoshlarning



Istiqbolli yo'nalish oldida turgan muhim vazifalar

Yoshlar turizmini rivojlantirish zarurati navqiron avlod vakillarining arzon va sifatli turistik xizmatlarga yuqori darajadagi ehtiyoji, yangi g'oyalarni qabul qilish, taassurotlarini yanada boyitish, dunyoqarashini kengaytirish kabi xislatlari bilan bog'liq. Ijtimoiy-madaniy innovatsiyalarni eng yaxshi qabul qiladigan yoshlar auditoriyasi bilan rivojlangan sayyohlik aholining umumiy iqtisodiy foydonligiga munosib hissa qo'shishi shubhasiz.

Biroq sohaning istiqbolli yo'nalishi sanalgan yoshlar sayyohligi borasida ham bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar bisyor.

Shuhrat Isaqulov, Turizm qo'mitasi bo'lim boshlig'i:

— Ekstremal turizm, yoshlar turizmi, yoshi katta sayyohlar uchun alohida dasturlar yaratish ushul ishlayapti. Bu borada muayyan qadamlar ham qo'yildi. Oxirgi yillarda bir qancha yangi sayyohlik yo'nalishi tashkil qilindi. Kimdir



Joriy yilning 20-31-mart kunlari bo'lib o'tgan "Yoshlar turizmi haftaligi" ham ana shu an'ananing uzviy davomi bo'ldi. Haftalik doirasida hududlarda o'tkazilgan ichki turizm yarmakalarida 520 ta tadbirkorlik subyekti, 400 ga yaqin yangi turizm maskani hamda salkam 900 ta oilaviy mehmon uyidan jami 10 mingga yaqin ishtirokchi jalb qilindi. Shuningdek, 500 mingdan ortiq o'quvchi, talaba va yoshlarning ziyoratgoh, qadamjollar, tarixiy, diqqatga sazovor maskanlarga sayohat qilish imkoniyati yaratildi.

Haftalik davomida yoshlar madaniy meros obyektlari, muzeylar, teatr va kinoteatrlarda bo'ldi. Ko'ngilochar musiqiy chiqishlar, o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantiradigan, tariximizni jonli ko'rsatuvchi teatrlashtirilgan tomoshalar yosh sayyohlarga olam-olam zavq bag'ishladi. 4159 malakali gid yosh sayyohlarni hududlardagi me'moriy obidalar, tarixiy shaxslar hamda keyingi yillardagi bunyodkorlik ishlari bilan tanishtirdi.

Yangi konsepsiyada har bir vazirlikka aniq yo'nalish berish, qanday dasturlar tuzish, yoshlar sayohatini xavfsiz tashkil qilish, qayerga, qaysi paytda olib borish kerakligi haqida takliflar beriladi. Ta'tilda yoki o'quv davrida o'lkashunoslik, tariximizni o'rganish, "Yosh sayohatchi", "Yosh geolog", "Yosh etnograf",

"Yosh alpinist" klublari, oromgohlar va shunga o'xshash yo'nalishlarni qamrab olish oldimida turgan muhim vazifa.

Ilmii-metodologik kitoblar, adabiyot va qo'llanmalar yetishmayapti. Mavjud darsliklarni yangi, zamonaviy bilimlar bilan boyitish zarurati bor.

Ayni paytda ekskursionodlar, tog'larda olib yurish uchun kuzatuvchilar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Biz universitetlarga xizmat ko'rsatgan alpinistlarni olib borib, yoshlarga alpinizm sirlari haqida qiziqarli ma'lumotlar berdik. "Toqqa chiqinglar, murabbiy bor, klub shakllantiranglar, bitta xona ajratanglar va shu mexanizm doim ishlab tursin", dedik. Afsuski, bu tashabbusga e'tibor berilmadi.

Har bitta yosh har yili kamida 2-3 ta sayyohlik obyektiga borishi zarur. Yoshlarga mo'ljallangan obyektlarni shakllantirish, yosh sayyohning pasportini ishlab chiqish ko'zda tutilgan. Yosh sayyohning qo'lida u boradigan yo'nalishlar va kitobcha bo'ladi. Obyektlarga boranda, misol uchun, muzey o'zining tamg'asini qo'yib beradi. Bir yil davomida o'quvchi 10 ta obyektga borsa, qanchadir ballga ega bo'ladi. Bu unga motivatsiya beradi, muzeylarga tekin kirish imkoniyatini qo'lga kiritadi. Undan keyin ko'krak nishoni beramiz. Hozir shu kabi motivatsiya beradigan dasturlar ustida ishlayapmiz. Albatta, bu faqat qo'mitamizninggina ishi emas. Buning ustida hamkor tashkilotlar ham ishlashi kerak. Jamoaviy sayohatlar uyushtirilganda, deylik, 50 ming yoki 70 ming yosh, maktab o'quvchisini Buxoroga yoki Samarqandga olib borishimiz kerak. Dastur bilan chiqilsa, Transport vazirligi yoshlarga, bolalarga mo'ljallangan tariflar, dasturlarni ishlab chiqishi va xavfsiz olib borib, olib kelishi kerak bo'ladi. Xohlansa avtobusda, xohlansa samolyotda borsin. Bolalarimizning haqqi bormi samolyotda arzon narxda uchishga? Albatta, bor. Hozirgacha bunday dastur yo'q. Biz-ku shunday tashabbus bilan chiqamiz, ammo boshqa vazirliklar ham bunga xayrixoh bo'lishi lozim.

Samarqandga borib-kelish uchun avtobusning narxi o'rtacha 3-4 million so'mni tashkil etyapti. Albatta, bu pulni ota-onaga to'lashi kerak. Bu esa

Samarqandga borib-kelish uchun avtobusning narxi o'rtacha 3-4 million so'mni tashkil etyapti. Albatta, bu pulni ota-onaga to'lashi kerak. Bu esa

Samarqandga borib-kelish uchun avtobusning narxi o'rtacha 3-4 million so'mni tashkil etyapti. Albatta, bu pulni ota-onaga to'lashi kerak. Bu esa

Samarqandga borib-kelish uchun avtobusning narxi o'rtacha 3-4 million so'mni tashkil etyapti. Albatta, bu pulni ota-onaga to'lashi kerak. Bu esa

Samarqandga borib-kelish uchun avtobusning narxi o'rtacha 3-4 million so'mni tashkil etyapti. Albatta, bu pulni ota-onaga to'lashi kerak. Bu esa

Samarqandga borib-kelish uchun avtobusning narxi o'rtacha 3-4 million so'mni tashkil etyapti. Albatta, bu pulni ota-onaga to'lashi kerak. Bu esa

Samarqandga borib-kelish uchun avtobusning narxi o'rtacha 3-4 million so'mni tashkil etyapti. Albatta, bu pulni ota-onaga to'lashi kerak. Bu esa

Samarqandga borib-kelish uchun avtobusning narxi o'rtacha 3-4 million so'mni tashkil etyapti. Albatta, bu pulni ota-onaga to'lashi kerak. Bu esa

Samarqandga borib-kelish uchun avtobusning narxi o'rtacha 3-4 million so'mni tashkil etyapti. Albatta, bu pulni ota-onaga to'lashi kerak. Bu esa

Samarqandga borib-kelish uchun avtobusning narxi o'rtacha 3-4 million so'mni tashkil etyapti. Albatta, bu pulni ota-onaga to'lashi kerak. Bu esa

Muammo nimada?

Turistik faollikning yuqoriligi ham yoshlarning mulohazaga, bilim olishga intilishi bilan izohlanadi. Yoshlar hayot quvonchini his qilishga moyil. Yurtimizda yosh sayyohlar e'tiborini tortadigan qanday sayyohlik yo'nalishlari bor? Ular uchun zarur shart-sharoit yaratilganmi?

— Mamlakatimizga tashrif buyuradigan sayyohlarning aksariyatini yoshi kattalar tashkil qiladi, — deydi "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti yetakchi mutaxassisi Bobur Ibragimov. — Ular uchun ko'ngilochar joylar kam, tog' turizmi hali yetarlicha shakllanmagan, tabiiy geografik joylarda sharoit yo'qligini inkor eta olmaymiz. Turistik firmalar shunday joylarga yo'naltiriladigan turpakatlar ishlab chiqmagan. Ochiq osmon ostida kinoteatrlar yo'q hisobi. Imkoniyatlardan maksimal darajada foydalana oloyapmiz, deysishga hali etar.

Sayyohlar ko'p keladigan Samarqand shahrida turizm ko'chasi barpo etilishi ko'zda tutilyapti. Istanbulda shunday ko'cha bor. U yerda hayot qaynaydi. Kimdir ko'shiq aytadi, kimdir rasm chizadi, boshqa birov nodir san'at asarlarini tomosha qiladi. Tarixiy shaharlarimizda shunday ko'chalarni tashkil qilish ham sayyohlarni jalb etishning yaxshi yo'li.

Zominda barpo etilgan osma dor yo'li bugun sayyohlar e'tiborini tortmoqda. Bu yaxshi. Shahrisabz tog'larida, Qamchiq dovonida milliy taomlarimiz tayyorlanadigan turli oshxonalar bor. Ulardan gastronomik turizm yo'nalishida foydalanish mumkin. Turfirmalar shunday joylarga turpakatlar ishlab chiqishi kerak. Ular hozir faqat chet elga yuborish bilan mashg'ul bo'lib qolgan. Xorijlik sayyohlarni yurtimizga jalb qilishda turistik firmalarning hissi katta.

To'g'ri, yoshlar turizmini rivojlantirish borasida ham amaliy ishlar qilinayapti. Ammo bu hali yetarli emas. "Yoshlar turizmi haftaligi"da bir hafta davomida ekskursion va ko'ngilochar tadbirlar o'tkaziladi. Bu ichki turizmning rivojlanishi uchun hissa qo'shyapti. Ammo bu doimiylik kasb etsa, qaysi go'shada o'tkazilayotgan bo'lmasin, xorijlik sayyohning e'tiborini tortishi shubhasiz.

Turizm xizmatlari, sayyohlar oqimi, infratuzilma yuksalib bormoqda. Yurtimizning har bir go'shasida turizm sohasini rivojlantirish borasida ham keng ko'lami ishlar amalga oshirilayotir. Ammo shu o'rinda tadbirkorlarni qiyinlab kelayotgan muammolar yo'q emas.

— Baxmal tumaning go'zalligi beqiyos bo'lgan O'monchi qishlog'i hamisha sayyohlar e'tibori markazida, — deydi tadbirkor Sobir Zokirov. — Baland qorli tog'lar, ko'p yillik archazorlar har qanday kishini maftun etadi. Yilning to'rt faslida ham sayyohlar qadami uzilmaydigan bo'yerga yoshlarning ham qiziqishi katta. Ammo issiqlik masalasi, elektr energiyasi, aloqa xizmati sifati talab darajasida emaslighi tufayli bu joy yosh sayyohlar e'tiborini qozona olmayapti.

Xizmatlar sifatining yaxshilanishi tarmoq jozibadorligini oshiradi

Sayohat yoshlarga hayotda o'z yo'lini topishga yordam beradigan va katta sarmoya talab qilmaydigan tadbir. U yigit-qizlarga o'zini namoyon etish, qaror qabul qilishni o'rganish va haqiqiy yetakchi bo'lish imkoniyatini beradi.

Yurtimizda o'tkazilayotgan shukuhli bayramlar, ko'ngilochar tadbirlar, musiqa festivallari xorijlik mehmonlarda yorqin taassurot qoldirayotgani shubhasiz. Bu ham sayyohlik imkoniyatlarimizni yana bir bor dunyoga namoyish etmoqda. Navqiron avlod vakillarining sayohat madaniyatini yuksaltirish ularning yurt manzillari, sayyohlik maskanlari haqida keng tushuncha va boy taassurotlarga ega bo'lishiga xizmat qilayotir. Turizm xizmatlari sifatini yanada yaxshilash va jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish borasidagi sa'y-harakatlar esa yurtimizga keluvchi yosh sayyohlar soni ortishiga, tarmoq jozibadorligiga zamin yaratadi.

2024-yil 2-aprel, 65-son

www.yuz.uz

yuz_offi



Shukuh



saqlanib turganini, asosiysi, yuksak marralar sari intilsa, dovonlarni zabt etishi muqarrarligini his etadi.

Kaminaga sayilda yurgan har bir inson shunday ko'rindi. Ularga hech kim kulib yuring, qovog'ingizni solmang, deb aytgani yo'q. Aksincha, Navro'z bayramining aynan o'ziga ro'baro' kelib qolgandek barcha shodu xurram edi.

O'rikzor tegrasidagi qir-u adirlarda, kengliklarda o'yinqaroq bolalar varrak uchirgan, sal narida dorbozlar to'p-to'p olomonga

Sayil bo'layotgan hududda zavq bilan sayr qilarkanamiz, taniqli estrada xonandalarining sho'x-shodon qo'shiqlarini tinglab, zavq oldik. Keng maydonda yuzlab odamlar raqsga tushar, g'uborlarini yozardi.

Biz — poytaxtdan borgan qalam sohiblari bir davra bo'lib, mushoiraga chog'landik. Yosh ijodkorlar o'qigan she'rlarning tinglovchisi ko'p bo'ldi. Bu sayilda hammasi haqiqiy edi — shu qatori o'qigan she'rlarga chalingan qarasklar, olqishlar ham chinakam bo'ldi. Rostini aytay, odamlar she'riyatini, shoirlar she'r tinglaydigan

Shunday qilib, yurgan-turgan joyimda qog'oz qoralay boshladim. Hayratu havasga to'lib, bazo'r turgan ekanammi, bilmadim, festival nomiga monand satrlar quyilib kela boshladi. O'zbekning dilbar shoiri, bahor kuychisi, deya e'zozlanadigan

bolalikdagi shirin orzularim, ota-onam, aka-ukalarim, opa-singillarim, o'rtolarim bir-bir o'tdi. Qarog'imda xuddi bahor yomg'iridek tomchilar paydo bo'ldi. Bu sog'inch, bu quvonch, bu hayrat ko'z yoshlari edi. Ochig'i, ijodkor

Botirjon ERGASHEV,
Yozuvchilar uyushmasi raisi o'rinbosari

Bu jumlaning o'qigan yoki eshitgandayoq qahraton qishning izg'iridan zada ko'ngillarda beixtiyor bahorning iliq shabadasida esa boshlaydi. Shuurda ajib hislar uyg'onadi. Bu jumla qanotida uyg'onish, yangilanish, yasharish kabi umidbaxsh tuyg'ular bo'y cho'zadi. Shuning uchun ham go'zal nom taqdirning bir qismi sifatida o'z in'ikosini topadi, degan oldingilar.



yurakyor mahorati bilan tomosha ko'rsatgan, undan nariroqda doshgozonlar qatorlashtirilib, qiling o'rgilsin sumalaklar qaynagan...

Xalqimiz uchun alohida dasturxonlar tuzalib, ko'k chuchvara, ko'k samsa, ko'k manti kabi bahoriy noz-ne'matlar tortilgan. Bir tomonda laparchi onaxonlar childirma chilib, "Vohay bola"ni kuylasa, bir tomonda bolajonlarimiz "Yomg'ir yog'aloq" qo'shig'ini aytgan. Darvoqe, farg'onacha katta ashulalar, momolarimiz kashf etgan vazmin raqslar, qizaloqlarimiz sochidagi jamalaklar, so'zamol akalarimiz qochirimli aski'ya-payrovlaridan ichagiziz buraladi...

muxlisimlari sog'ingan ekan. Shu sayilda bu yaqqol ayon bo'ldi-qoldi. Lof bo'lmasin, sahnaga chiqqan shoiri shoirlarimiz bu e'tiboru olqishlardan ilhomlanib, ruhlanib, yangi turkum yaratdi, hech qursa, yangi turkumga xamiturush bo'lajak misralarni yondafariga bitib qo'ygani muqarrar.

Bolajonlar ishtirokidagi "chillak", "quloq cho'zma", "eshak mindi" kabi xalq o'yinlari tomoshasidagi qiy-chuv to'plangan yurtdoshlarimizning ko'nglini tog'day ko'tardi.

Bu go'zal va beqiyos manzarani she'rga solmaslik shoir uchun ayb, dedim o'zimga o'zim.



Milliy kurash ishqibozlarini aytmasizmi? Kurashchilarimiz gilamga chiqib, shunday harakatlar qilyaptiki, raqibini avaylab, hurmat bilan yerga kuragini bosib qo'yishdan qiyqirovasiz! Polvonlar og'ir-og'ir toshlarni ko'tarib, u yelkasiidan bunisiga olib o'ynaganida odam bolasining qudratiga, kuchiga qoyil qolasiz.

Zavqu shavqqa to'la dilimga buloqdek jimirlab ilhom kela boshladi. Hamma yoq gavjum, ijod uchun xoliroq joy topish mushkul. Biroq ilhom degan pari joy va vaqt tanlab o'tirmaydi-ku. "Yozsang, yozding, yozolmay qolsang, shunday go'zal sayilga nomunosib bo'ladi", deya ijodga kirishdim.



Hamid Olimjonning o'sha mashhur she'ri — "O'rik gullaganda"ga nazira o'laraq yangi bitik dunyoga keldi!

Yelkamdanda tog' qulagandek, biram yengil tortdim. Go'yo shu mitti she'rim bilan sayil jozibasiga hissam qo'shildi va yuzim yomug' bo'ldi. O'rik gullarining ko'ziga qarog' qarayman, dedim. Bu yengil ruh ichida bugunga shukrona, xalqimiz quvonchiga sheriklik, milliy qadriyatga ajib urf-odatlarimizdan iftixor bor edi, nazdimda.

Farg'ona viloyati hokimligi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Yoshlar ishlari agentligi viloyat bo'limi hamda qator hamkor tashkilotlar tashabbusi bilan tashkil etilgan "O'rik gullaganda" festivalining xalqimizga manzur bo'lgani, sayilning uzatdan kechgacha davom etgani yodimizdan erdan vaqt chiqmasa kerak. Yig'ilishda muazzam sayilni tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad, avvalo, xalqimizni rozi qilish ekan ta'kidlandi.

Anjumanda men ham yurtdoshlarimizni qutlagan chiqdim. Negadir hayajonlanmaydigan odammi qalibro bossa, deng. Mikrofonga yetib borguncha ko'z oldimdan butun bolaligim —

bo'lsam-da, o'sha palladagi hayajonimni ta'rifiy olmayman. Yozsam, balki doston bo'lar.

Qo'limga mikrofon olib, soddadi, mehri tog'dek sarbaland, oljanoq xalqimizni shunday fayzli ayom bilan mubarakbod etdim. Halol va iymoni mustahkam xalqimizni boshida ko'tarayotgan, mana shunday muhtasham tantanalar uyushtirishga sharoit yaratib berayotgan davlatimizga chin dildan minnatdorlik aytdim...

Yana she'rlar yangradi. She'rlar qo'shiqlarga, qo'shiqlar raqslarga ulanib ketdi. Ilk bor o'tkazilgan "O'rik gullaganda" festivali tashkilotchilar o'ylagan, istaganidan-da yaxshiroq, go'zalroq o'tdi. Shu bois, festival intihosida "O'rik gullaganda" sayli an'anaga aylantirilib, har yili o'tkazilishi ma'lum qilindi. Biz har kunini to'y, bayram qilib o'tkazishga munosib, o'xshashi yo'q tabiati bor, fe'li bahor bo'lgan buyuk xalqim. Binobarin, mehnat qilishni ham, uning rohatini tuyib yashashni ham do'ndiramiz. O'riklar gullayversin! Bu zaminiy go'zallikdan ko'ngillar yasharish va uyg'onishga ulgu olib, yangi orzular kurtak yozaversin, bayramlar bayramlarga ulanaversin!

Mulohaza

OLDINGIZDAN OQQAN
SUVNING QADRINI BILINGShoqahhor SALIMOV,
jurnalists, "Do'stlik" ordeni sohibi

Bir tanishim aytib qoldi. Kuzda uyiga xorazmlik do'sti oilasi bilan mehmonga kelibdi. Ertasi kuni poytaxtni aytlanmoqchi bo'lishibdi. Ko'chaga chiqishdan oldin do'sti, birinchi navbatda, "Tashkent City" va "Magic City"ga olib borishini iltimos qilirdi. "Televizordagi ko'rgandim. Juda go'zal joylar bo'libdi. Sizlar tez-tez borib tursangiz kerak-a?" debdi gap orasida.

"Shunda uyilib ketdim, — deydi tanishim. — Ishxonam shu ikki sitining o'rtasida joylashgan. Har kuni baland binolarga qarab qo'yaman. Lekin biror marta bolalarimni, oilamni shu yerlarga sayrga olib bormabman. Xullas, do'stimning bolalari bilan o'zimizning farzandlarimni ham olib, "Tashkent City"ga bordik. Ichkariga kirgach, hayratdan og'zim ochilib qoldi. Shahar ichidagi ajoyib shaharcha ekan. Bu yerdagi muzey, favvora, restoran, do'konlar va boshqa binolarni ko'rib, hayratim oshdi. Mehmonlar bahona bolalarim ham rosa yayradi.

Keyin "Magic City"ga yo'l oldik. Bu yerdagi manzara menga ertakni eslatdi. Bolalar dam oladigan, yayrab o'ynaydigan joy ekan. Kechqurun tomosha uchun do'stinga rahmat aytdim. Ba'zan o'yalanib qolaman. Xalqimiz "Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q" degan maqolani topib aytdim. Toshkentda qancha yangi massivlar, bog'lar, ko'ngilochar maskanlar ochildi. Ularni ko'rgan viloyatdandamlar keladi. Biz esa bormaymiz, borishga hafsala


qilmaymiz. Nega? Axir hammasi biz uchun, bolalarimiz uchun qurilyapti-ku.

Do'stim ketishdan oldin bizni Xivaga taklif qildi. O'sha voqeadan so'ng, albatta, Xivaga boraman, deb qaror qildim. Nazarimda, oldimdan oqqan suvning qadriga yetadigan vaqt keldi.

To'g'ri, bugun har qanday yangiliklardan internet tarmoqlari va turli ommaviy axborot vositalari orqali qisqa fursatda osongina xabarlar bo'lish, hatto ko'rish ham mumkin. Lekin...

Toshkent metrosi yer usti halqa yo'lining ikkita bekati 11-mart kuni foydalanishga topshirildi. "Yangi O'zbekiston" gazetasi shu voqeaga atab bir sahifa maqola chop etdi. Maqolada mana shu ikkita bekat poytaxt aholisi va mehmonlari uchun ijtimoii, iqtisodiy va hatto ma'naviy hayot nuqtayi nazaridan naqadar muhim obyekt, katta voqea ekan dalillar orqali talqin etildi.

Darhaqiqat, metroning "Turon" va "Qipchoq" bekatlari faoliyat boshlagandan keyin, masalan, Qo'ylidagi massivlar va



Bektimir tumani Yashnobod hamda Chilonzor tumanlariga "yaqinlashdi". Sergeli tumanining Quruvchilar mavzesida yashayotgan tanishim "Endi "Oqtepa" mavzesida joylashgan ishxonam bir qadam bo'lib qoldi", deydi quvonib. Ilgari butun shaharni aylanib, ishga kelar ekan.

Yangi O'zbekistonimiz bo'yab, ayniqsa, Toshkentni azimda ulkan bunyodkorlik, obodonchilik ishlari olib borilmoqda. Foydalanishga topshirilgan va qurilayotgan aksar imoratlar, madaniy-ilmii muassasalar, ta'mirlanayotgan tarixiy majmualar tomoshaga, ziyoratga kelgan har bir mehmonni hayratga solmoqda. Keyingi yillarda ichki turizmga e'tibor

kuchaygani sharofati bilan yurtdoshlarimiz poytaxtda, Samarqand-u Xiva, Shahrisabz-u Qo'qon, hatto mamlakatimizning eng sharqiy chekkasi Xonobod shahrida ham, qolaversa, barcha tuman va viloyatlarimizda amalga oshirilgan yangilanishlardan o'z ko'zlari bilan voqif bo'lmoqda. Navro'z, Mustaqillik, Yangi yil bayramlari munosabati bilan ketma-ket uch-to'rt kun dam olish kunlari belgilanayotgani, poxyzid va samolyotlar chiptalarini arzon narxlarda sotish yo'lga qo'yilayotgani va boshqa qulayliklar yaratilayotganining zamirida chiqur ma'no va maqsad borligini ham yaxshi bilamiz. Axir xalqimiz aytganidek, "Ming bor eshitgandan ko'ra, bir bor ko'rgan yaxshi".

Biz Abdulla Qodiriy asarlarini yaxshi ko'ramiz, bajonu dil katta ishtiyok bilan o'qiyimiz, ta'sirlanamiz. Uning fojiali hayotidan qattiq siqlamiz. Farzandlarimizga yozuvchining "O'tkan kunlar" romani va boshqa asarlarini mutolaa qilishni maslahat beramiz. Ammo Toshkentda yashab turib, buyuk yozuvchimizning 125 yillik tavallud ayomi munosabati bilan ochilgan uy-muzeini borib ko'rganmisiz? Abdulla Qodiriy kabi millat fidoyilari xotirasini abadiylashtirish uchun Yunusobodda ochildan "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmu'i hamda Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyini ziyorat qilganmisiz?

Bundan besh yil oldin bunyod etilgan "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi va "Shon-sharaf" davlat muzeyining har bir ekspozitsiya inson qalбини hayajonga solmoqda. Bu ulkan majmuada davlatimizning nafaqat ajdodlar xotirasiga katta



ehtiromi, balki kelajak avlodni vatanparvarlik, tinchliksevarlik ruhida tarbiyalashga bo'lgan yuksak e'tibori namunasidir.

Afsuski, bugun Ikkinchi jahon urushi tarixi dunyoning ayrim mamlakatlarida boshqacha talqin qilinmoqda. Urush jangohlari O'zbekistondan minglab kilometr uzoqlikda joylashgan bo'lsa-da, uning og'ir va mudhish asoratlari hech bir yurtdoshimiz xonadonini chetlab o'tmagan. Majmuadagi urush dahshatlari, xalqimizning mardlik hamda matonatini, bag'rikenglik va saxovat kabi fazilatlarini o'zida aks ettirgan tarixiy hujjatlar, ashyoviy dalillar osuda hayot naqadar bebaho ne'mat ekanini yana bir karra eslatadi va ogohlikka da'vat etadi.

O'ilamiz bilan tabarruk maskanga ziyoratga borganimizda nevaralarim front manzaralari, okoplar, harbiy texnikalarni ko'rib, "Bobojon, xuddi kinoda ko'rganimizdek ekan-a?" deydi. Sadoqat va mardlik ramzi bo'lmish Zulfiya osha Zokirova va uning urush qurboni bo'lgan besh o'g'lining sodiq rafiqalariga atab qad rostlagan muhtasham haykal oldida ko'p o'yalanib qoldik. Qisqa tarixiy hikoyadan so'ng farzandlarim va nevaralarimga bu qahramonlik haqidagi "Ilhaq" badiiy filmini ko'rishni tavsiya etdim.

Bugun poytaxtimiz markazida qad rostlagan va rostlayotgan yirik inshootlar hammaning

e'tiborini o'ziga tortmoqda. Muhtasham "Humo Arena" sport-ko'ngilochar majmuasining loqal atrofini aylanib ko'ring! Metroning Alisher Navoiy bekati devori va shifrladagi ajoyib asarlarni xorijlik sayyohlar hayrat bilan suratga tushirayotganini ko'rib, rosti, faxru iftixoringiz oshib ketadi. O'ziga xos san'at va adabiyot qasriga o'xshataman shu bekatni.

Samarqanddagi "Boqiy shahar" majmuasi va ko'hna Samarqandning o'zini uyg'unlikda ko'rsangiz, beixtiyor yangisi ham ko'hnasidek jozibali ekan, degan fikr o'tadi ko'nglingizdan. Obodlikka ne yetsin! Istanbul shahriga sayohat qilgan bir yurtdoshimiz "Xurram Sulton hammomini ko'rdim", deb maqtanib qoldi. "Shahrisabzdagi Oqsaroyi, Buxorodagi Sitorni Mohi Xossa majmuasini, Qo'qondagi Xudoyorxon o'rdasini ko'rganmisiz?" deb so'raganimizda tasdiq javobini ololmadik. Ishonchimiz komilki, u Samarqandda ham, Buxoroda ham, Xiva va Shahrisabzda ham bo'lmagan, bu shaharlarimizdagi tarixiy obidalarini ko'rmagan. Lekin Xurram Sulton hammomini ko'rgan bilan maqtanadi. Afsus...

Ulkan bunyodkorlik ishlari ko'rib, Sohibqiron Amir Temurning "Agar kuch-qudratimizga shubha qilsangiz, biz qurdirgan imoratlariga boqing", degan so'zlari yodimizga keladi. Yurtimiz jamoliga ko'z tegmasin!

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar MahkamasiBosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. Buyurtima — 1078. 44543 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060. Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy. Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva
Musahhah: Asliddin Abdurazaqov
Dizayner: Xurshid AbdullayevManzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy